



## TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

**G'ulomjon Atadjanov**

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instiuti*

*I- bosqich tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada istiqlol yillarida yaratilgan, o'zbek adabiyotida yozilgan tarixiy dramalar xususida haqida gap ketadi.

**Kalit so'zlar:** tarixiy drama, obraz, tarixiy haqiqat, avlod.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об исторических драмах, написанных в узбекской литературе, созданных в годы независимости. **Ключевые слова:** историческая драма, образ, историческая правда, поколение.

**Annotation:** This article talks about historical dramas written in Uzbek literature, created in the years of independence.

**Key words:** historical drama, image, historical truth, generation.

O'zbek xalqining chin shoiri, tug'ma istedod egasi, "o'zbek she'riyatining porloq yulduzi" Usmon Nosir haqida ko'plab dramalar yaratildi. Usmon Nosir chindan ham tug'ma istedod sohibi bo'lgan. U juda ishonuvchan, hammani o'zidek ko'radigan inson bo'lgan. Ammo, uning zamoni va zamondoshlari, do'stlari shoirni ranjitadilar. Yaqin kishilaridan eshitgani tuhmat, bo'hton va haqorat bo'ladi. "Ma'lumki, hech bir kishi zolim yoki razil, johil va rahmsiz bo'lib tug'ilmaydi. Ijtimoiy tuzum, turmush tarzi insonlarning qalbini mayib qiladi, ongini zaharlaydi, ularni boy va zolimlarga aylantiradi"<sup>1</sup> Mana shunday ruh shoir ijodiga bag'ishlangan dramalarning barchasida saqlanadi. Usmon Nosir ijodiga bo'yicha yozilgan ilk asar N. Rashidovanning "Usmon Nosir" tarixiy dramasi bo'ldi. Ushbu drama 2019-yil yozilgan. Prezidentimiz 2022-yil 10-fevraldagi qarori asosida mamlakatimizda otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu munosabat bilan Usmon Nosir hayoti va ijodiga bag'ishlangan qator drama va tragediyalar yaratildi. Xususan, Iqbol Mirzo "Usmon Nosir" (Uch pardali, o'n yetti ko'rinishli) tarixiy fojia, To'ra Mirzo "Usmon shoir-osmon shoir" (Ikki

<sup>1</sup> Hafiz Abdusamatov Tarix va badiiy talqin.-T.: G'..G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995.-184 - bet.





pardali) musiqali drama, Javlon Jovliyev “Usmon Nosir”(Besh sahnali) musiqali dramalar yozdilar. Boshqalardan farqli o'laroq, Iqbol Mirzo asarini tarixiy fojia deb atagan. Tragediyadagi obrazlar soni boshqalar yozgan dramalarga qaraganda nisbatan ko'p va tarixiy shaxslar ham anchagina. Shuningdek, tragediyada Usmon Nosirning bolaligidan to yigirma besh yoshgagacha bo'lgan hayoti, hibsonadagi oxirgi olti yili yoritiladi. Usmonning maktabga borishi, birinchi she'rini sinfdoshlariga o'qib berishi, ustozlari haqida fikrlari hayotdagidek tasvirlaydi. Tergovchi va Usmon Nosir o'rtasida savol javob bo'lar ekan, uning savollariga javob qaytarish asnosida o'tgan qisqa hayoti ko'z oldida gavdalanadi. Boshqa dramalarga nisbatan ushbu tragediyada maqollar, shevaga xos o'z va o'xshatishlardan keng foydalaniladi. “Usmon Nosir haqida, ayniqsa, sahna asarini yozish qiyin. Muallif bunday asarda iloji boricha tarixiy haqiqatdan cheklanmasigi kerak. Shoir chekkan azoblarni ko'rsataverish ham tomoshabinni toliqdiradi. Iqboljon juda to'g'ri yo'lni topgan. Yigirma besh yoshida ijod olamidan badarg'a qilingan shoirni faqat uning Sheriyati ko'tarib turadi. Bu asardaning ikkita bosh qahramoni bor. Ulardan biri - Usmon Nosirning o'zi bo'lsa, ikkinchisi esa - She'riyat”<sup>2</sup> deb ta'kidlagan akademik N.Karimov. Tragediya boshidan konflikt ya'ni hibsonada tergovchi va shoirning savol-javobidan boshlanadi. Tergovchi shoirni og'ziga kelgan so'zlar bilan haqoratlaydi, so'kadi. Ushbu asar haqida iliq fikrlarini aytgan akademik N.Karimov yuqoridagi maqolasida shunday gaplarni aytadi: “Asardagi yana bir muhim masala – Tergovchi bilan Usmon Nosir o'rtasidagi “jang” sahnalari. Qatag'on mavzusiga bag'ishlangan qariyb barcha asarlarda tergovchilar o'ta nodon, o'ta johil, o'ta millatchi, insoniy qiyofasini yo'qotgan jonivor sifatida tasvirlanib keladi. Ushbu asarning dastlabki sahnalarida ham shunday aksilinson obrazini ko'ramiz ”<sup>3</sup>. Akademik N.Karimov juda to'g'ri gapni aytganlar. Chunki aynan Usmon Nosirga bag'ishlangan boshqa dramalarda ham tergovchilar xuddi shunday qora bo'yoqda tasvirlagan. Shuni aytish kerakki, qaysi millat vakili bo'lishimizdan qat'iy nazar insonlarmiz. Insoniylikni yo'qotmasligimiz kerak. Hayotda yomon insonlarga qaraganda yaxshi insonlar ko'p. Buni ushbu asardagi tergovchi yonidagi yigit, **tergovchining yordamchisi** obrazi orqali namoyon bo'lsa, Javlon Jovliyev dramasida **Sasha** obrazida, To'ra Mirzoning dramasida esa **Lyudmila** obrazlari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Ular ham

<sup>2</sup> N.Karimov Iqbol Mirzoning “Usmon Nosir” pyesasi xususida. Sharq yulduzi jurnali № 04.2022 B-33

<sup>3</sup> O'sha manba





tergovchi kabi rus vakili hisoblansada, Usmon Nosirga hayrihoh bo'lgan ijobiy, bag'rikeng to'qima obraz mahsuli hisoblanadi. Aynan shu jihatdan barcha dramalar syujetida bir xillik mavjud. Iqbol Mirzoning tragediyasida **tergovchi yordamchisi** Usmon Nosirdan xat olib uni onasiga yetkazib turadi. Javlon Jovliyev dramasida **Sasha** “Bir shoirning qotili bo'lib butun tarixda yuzim qora bo'lgandan ko'ra, bir hayvonni yo'q qilib qamalanim yaxshi” deb Usmon Nosirni otishning o'rniga hamkasbi **Vaniyani** otib o'ldiradi. To'ra Mirzo dramasida **Lyudmila** Usmon Nosirga issiq kulcha beradi. Tragediyada Usmon Nosirning bolaligidan to yigirma besh yoshgagacha bo'lgan hayoti yoritiladi. Usmonning maktabga borishi, birinchi she'rini sinfdoshlariga o'qib berishi, ustozlari haqida fikrlari hayotdagidek tasvirlaydi. Tergovchi va Usmon Nosir o'rtasida savol javob bo'lar ekan, uning savollariga javob qaytarish asnosida o'tgan qisqa hayoti ko'z oldida gavdalanadi. Dramalarning barchasida shoirning she'rlaridan unumli foydalanganlar. Nodira Rashidova dramasida Usmon Nosir she'rlari xalq orasida tez tarqalishi, el orasida sevib o'qilishi shuningdek, yozgan she'rlari tezda mashhur bo'lib ketishi aks ettirilgan va ishonarli chiqqan. “**1-mahbus.** Usmon eshityabsanmi? Ayollar o'z zonasida sen yozib bergan qo'shiqni aytishyapti!.. Tingla-ya!(hayajonda karovatdan sapchib yerga tushadi) Tinglanglar...Qo'shiq qaytariladi. Hamma jim eshitadi.Bo'ron uvillashi tinmaydi. **3-mahbus.** Usmon, bu she'rni lagerning havaskorlik to'garagi uchun yozib berganding-a? Qoyil!..Rus tilini o'zimizdan ham yaxshi bilasan-a... Qo'shiqning so'zlari zo'rligini...Yuragimdagi barcha armonlar misralarga to'kilgan. (Usmonga qarab) Nikoh uzugini taqish senga ham nasib etmagan-da<sup>4</sup> **1-mahbus.** Usmon, sen havaskorlarga yozib bergan tarixiy pyesani ham sahnalashtirishyaptiyan... Ko'ramiz-a?!”<sup>5</sup>. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Usmon Nosir tarixiy drama yozganligi haqiqatdir. Bu haqida N.Rashidova o'zining “Usmon Nosir haqida” kitobida shunday keltiradi: “1940-yil 20-avgust kuni Usmon Nosir I.V.Stalin nomiga Magadandan arz xatini yozib, qiyin qamoq sharoitida “bitta she'riy roman, uchta pyesa, bir qator she'rlar” yozganini aytadi va “xalqlar dohiysi”dan ozodlikka chiqarilishini so'raydi”<sup>6</sup>. Aynan mana shu ariza hozir ham saqlanmoqda. Shoirning buloqday qaynab-toshishini ko'rsatuvchi epizodlardan o'rinli foydalanganlar.

<sup>4</sup> Rashidova N. Yetti sayyora.” Noshirlik yog'dusi” T. 2019. B-83

<sup>5</sup> O'sha manba

<sup>6</sup> Rashidova N. Usmon Nosir haqida G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.-2001. B-22





Dramada o'lmaydigan va shuningdek, barcha asarlarda seni sotmaydigan chin do'st bor. U shak-shubhasiz - Ona obrazidir. Usmon Nosir hayotiga bag'ishlangan barcha dramalarda shoirning onasi Xolambibi obrazi keltiriladi. To'ra Mirzoning dramasi esa ona obrazi boshidan oxirigacha faol qatnashadi. Drama shoirning onasi Xolambibining Namangandan Qo'qonga uzatilishi masosimidan boshlanadi. Ota uyidan yor-yorlar bilan chiqadi va undan keyin voqealarga ulanib ketadi. I.Mirzo tragediyasida esa Usmon onasini tushida ko'radi. J.Jovliyev dramasi esa 3-sahnada galdalanadi. N.Rashidova dramasi Nosirovlar Toshkent shahrida ijaraga olgan hovlisi tasvirlangan. Boshqa dramalarda esa bu hovli aks etmagan. Dramalarda yana bitta obraz bo'ladi. Bu obraz - Muhabbatdir. Muhabbat o'lmaydigan, shu bilan birga hech qachon eskirmaydigan obraz hisoblanadi. Shoir ijodiga bag'ishlangan dramalarning barchasida mavjuddir. Usmon Nosir obrazining yanada puxta chiqishi, uning ruhiy kechinmalarining kengroq ochilishi sevgi-muhabbat bilan uzviy bog'liq. Usmon Nosir yolg'iz o'tgan, oila nash'asini surmagan. Bunga o'sha davrdagi og'ir, murakkab sharoit balki sabab bo'lgandir. Endi navqiron yigit bo'lib, muhabbat gashtini surib, kuyovlik baxtini turadigan paytida nohaqlikka uchradi. Bu lavhalar N. Rashidova dramasi joy olgan. Lagerda rus tilida she'r yozgan shoirga qarata uchinchi mahbus savol beriladi. " (Usmonga qarab) Nikoh uzugini taqish senga ham nasib etmagan-da..."<sup>7</sup> N.Rashidova dramasi shoirning sevgilisi Munavvarxon, I. Mirzo tragediyasida Nasima, T. Mirzo dramasi Lyudmila, J. Jovliyevda Luiza deb nomlanganlar. Bu obrazlarning barchasi to'qima obraz mahsuli bo'lsa ham dramada katta ahamiyatga egadir. N.Rashidovning dramasi oxirida shoir vafot etar ekan uning ruhi yana qaytib keladi. Sahnada Usmon paydo bo'ladi. O'zbekiston bayrog'i hilpiraydi. Usmonning sharangdor ovozi yangrashi: she'r aytishi bilan yakunlanadi. I.Mirzo tragediyasi Ona faryod solishi bilan tugasa, T.Mirzoning dramasi ham xuddi shunday Onasi Xolambibining ariya aytishi, ariya yor-yorga aylanishi bilan tugaydi. J.Jovliyevda ham shunday faqat drama yakuni shoirning she'ri bilan tugagan. Ushbu dramalardan ikkitasi N.Rashidovning dramasi O'zbek milliy akademik drama teatrida, J.Jovliyevning dramasi Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatrida spektakli namoyish etildi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, umuman olganda, Usmon Nosir ijodiga bag'ishlangan dramalar bilan bizni yaqin o'tmish

<sup>7</sup> Rashidova N. Yetti sayyora." Noshirlik yog'dusi" T. 2019. B-83





haqidagi tasavvurimizni boyitadi, ko'z oldimizda o'sha davrning yorqin, jonli manzarasini ko'rsatadi, shoir nafasini olib keladi. Ushbu dramaturglar yaratilgan shoirning puxta obrazlari esa o'quvchi va tomoshabinlarda qiziqish uyg'otadi, hayajonga soladi. Bu esa shoir Usmon Nosirning umri boqiyiligiga yana bir bora zamin bo'la oladi.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusamatov H. "Tarix va badiiy talqin" G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T. 1995.
2. Rashidova N "Yetti sayyora" "Noshirlik yog'dusi nashriyoti". T. 2019.
3. Iqbol Mirzo "Usmon Nosir" Sharq yulduzi jurnali № 04.2022.
4. To'ra Mirzo "Usmon shoir-osmon shoir" Sharq yulduzi jurnali № 08.2022.
5. Jovlijev J. "Usmon Nosir" dramasi. T. "Ijod Nashr" nashriyoti.2022
6. Rashidova N. "Usmon Nosir haqida" G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T. 2001
7. Soliyev A "O'zbek dramaturgiyasida inson talqini" monografiya. "Zar qalam" nashriyoti. 2006.

